

IQDISODIY NOCHOR KORXONALAR TAHLILI

Toshov Mirzabek Hakimovich

Osiyo xalqaro universiteti

Raximova Lolaxon Avazovna

Osiyo xalqaro universiteti

Annotatsiya: Bozor iqtisodiyoti rivojlanib borishi bilan raqobatchilik munosabatlari ham takomillashib, o'z shakllarini o'zgartirib boradi. Bozor ishtirokchilari iqtisodiy manfaatlarining to'qnashuvidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi yuqori foyda va ko'proq naflilikka ega bo'lish uchun kurashni anglatadi. Raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyotida bankrotlik, iqtisodiy nochorlik kabi tushunchalar barqarorlik, iqtisodiy farovonlik kabi tushunchalar bilan bir o'rinda ishlatilishi tabiiy holatdir. Ammo bozorning raqobat asnosida shakllanishi bozor ishtirokchilari orasida faqatgina raqobatga chidamlilarigina qolishini taqozo etadi. Mazkur maqola ishida korxonalarda iqtisodiy nochorlik holatining kelib chiqish yo'llari tizimli ravishda aniqlash hamda umumiy iqtisodiy holati va moliyaviy barqarorligini tahlil qilish, moliyaviy sog'lomlashtirish mexanizmlari takomillashtirish masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot ishida xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari faoliyatini tizimli boshqaruv asosida moliyaviy sog'lomlashtirish yo'nalishlari hamda korxonalarni iqtisodiy nochorlikdan chiqarishda xarajatlarni boshqarish konsepsiyasini qo'llashga oid misol berilgan.

Kalit so'zlar: Raqobat, bankrotlik, sog'lomlashtirish, Prognoz

Moliyaviy barqarorlik koeffitsientlari

Ko'rsatkichlar	Aniqlanishi	Normal darajasi
Kapitallashuv darajasi	Qarz kapitali/Xususiy kapital	1,5 dan yuqori bo'lmagan hollarda
o'ziga tegishli mablag'lar bilan ta'minlanish koeffitsienti	Xususiy kapital - Oborotdan tashqari aktivlar*/Oborot aktivlar**	Quyi darajasi 0,1 $K > 0,5$
Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti	Xususiy kapital/Balans jami	$K_m > 0,4 + 0,6$
Moliyalashtirish koeffitsienti	Xususiy kapital/Qarz kapitali	$K_k > 0,7$
Moliyaviy barqarorlik koeffitsienti	Xususiy kapital+Uzoq muddat majburiyatlar/Balans jami	$K_b > 0,6$

*-uzoq muddatli aktivlar

** -joriy aktivlar

Korxonalarning iqtisodiy va moliyaviy ahvoliga qarab korxona iqtisodiy nochorligi maqomi turlicha qarashlarga sabab bo'ladi. Yuridik shaxslarni bankrot, deb e'lon qilish, ularni tugatish talablari davlat nomidan ish yurituvchi organlar tomonidan belgilangan tartiblarda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan korxonalarni(korxonalar)ni iqtisodiy nochor, deb topishning tartiblari belgilanadi. Ushbu agentlik tomonidan yuridik shaxslarni iqtisodiy nochorligi mezonlari ishlab chiqilgan. Korxonalarning moliyaviy holatini baholashda quyidagi koeffitsientlarni aniqlash tavsiya etilgan:³⁶

- To'lov qobiliyat yoki qoplanish koeffitsienti (Kt);
- Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti (Km);
- O'zlik mablag'lari manbasi bilan ta'minlanganlik koeffitsienti (Kamm);
- o'z va qarz mablag'larining o'zaro nisbati koeffitsienti (Kuz/q);
- Aktivlarning rentabellik koeffitsienti (Kar);
- Quvvatlardan foydalanganlik koeffitsienti (Kq);
- Asosiy vositalarning eskirish koeffitsienti (Kav);
- Muddati o'tgan kreditorlik qarzlarning mavjudlik holati.

Lekin yuqoridagi ko'rsatkichlar tizimi ham, iqtisodiy adabiyotlar keltirilgan ko'rsatkichlar tizimi ham shuni namoyon qilmoqdaki, iqtisodiy nochorlik masalalarida haliam ma'lum chalkashliklar borligini ko'rsatadi.

Adabiyotlardagi korxonalar iqtisodiy nochorligi ko'rsatkichlarini nazariy jihatdan o'rganishlar natijasida quyida keltiriladigan ko'rsatkichlar tizimi tavsiya etiladi.

1. Korxonalarning mustaqillik koeffitsienti — Bu koeffitsient korxona o'zlik mablag'lari manbaini barcha mablag'larga (aktivlarga) bo'lish orqali topiladi. Bu indikator korxonaning o'zlik mablag'lari manbaini mavjud barcha mablag'larning qancha ulushini tashkil qilishini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich 0,5 koeffitsient (50%) va undan baland bo'lsa, moliyaviy mustaqil bo'lib hisoblanadi.

2. Korxonalarning to'lovga qobilik koeffitsienti. Bu ko'rsatkich korxona balans aktiv II «Joriy aktivlar» bo'limi umumiyisini qisqa muddatli qarz majburiyatlariga nisbati kabi aniqlanadi.

3. Korxonalarning o'zlik mablag'lari manbai va qarz mablag'lari nisbati koeffitsienti. O'zlik mablag'lari jamisidan (balans passivi I-bo'lim) uzoq muddatli aktivlar (balans aktivi I-bo'lim) summasini ayirib tashlab va aylanma mablag'lardagi o'zlik mablag'lari summasini topamiz.

4. Aktivlar rentabelligi — bu indikator korxona sof foydasini aktivlar jamisiga (balansining jami summasiga) nisbati kabi hisoblanadi. Shuning uchun aktivlar

³⁶ Ваҳобов А.В., Ибрагимов А.Т. «Молиявий таҳлил». Дарслик. Т., «Ўзбекистон» - 2002 й., 111-бет

rentabelligini doimiy ravishda analiz qilib borish, uning vaqt oralig'ida o'zgarishini o'rganish muhim.

Korxonalarining iqtisodiy nochorligini hisoblash ko'rsatkichlari va ularning meyorlari³⁷

Ko'rsatkichlar	Aniqlanishi	Meyorlar	Nochorlik belgisi
1	2	3	4
Korxonalarning to'lovga qobillik koeffitsienti	$Kt = \text{Joriy aktivlar/muddati kelgan to'lov majburiyatlari}$	2-3	$Kt < 2$
Korxonalarning mustaqillik koeffitsienti	$Km = \text{o'z mablagiari manbayi/Jami mulk}$	$Km > 50\%$	$Km < 50\%$
Uzoq muddatli va joriy aktivlarning nisbati koeffisienti	$\text{Oborot mablag'lari naqdligi-moddiy zahiralar / O'zlik mablag'lari + Uzoq muddatli qarz mablag'lari - Moddiy zahiralar}$	Ortiqchalik	Yetishmovchilik
O'z va qarz mablag'lari nisbati koeffisienti	$Ka = \text{o'z mablagiari/qarz mablagiari}$	Ortiqchalik	Yetishmovchilik
Aktivlar rentabelligi	$Kr = \text{Sof foyda/Aktiv yoki kapital + majburiyat}$	$Kr > 0$	0 dan kichik
Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi	$Kf = \text{Ishlab chiqarish quvvatining haqiqiy darajasidagi mahsulot hajmi/texnik loyiha bo'yicha ishlab chiqarilishi lozim bo'lgan hajm}$	$Kf = 1 > 0$	$Kf = 1 < 0$
Asosiy vosita va nomoddiy aktivlar eskirishini jamg'arilish koeffisienti	$Ke = \text{Asosiy va nomoddiy aktivlarni eskirish qiymati/Asosiy vosita va nomoddiy aktivlarni boshlang'ich qiymati}$	$Ks > 0.5$	$Ks < 0.5$

³⁷ Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. O'quv qo'llanma / Raximov M. Yu. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Toshkent Moliya instituti. -T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2013. 230-b.

Muddati o'tgan majburiyatlar holati	$Kd/k = \text{Muddati o'tgan}$ majburiyatlar/jami majburiyatlar	$Kd/k < 0.5$	$Kd/k > 0.5$
--	---	--------------	--------------

Ixtiyoriy ichki moliyaviy sog'lomlashtirish. Inqirozga qarshi boshqaruv tizimining bir qismi sifatida korxonaning inqirozga qarshi moliyaviy boshqaruvining quyi tizimi, shu jumladan dastlabki tashxisning moliyaviy usullari va korxonani bankrotlikdan himoya qilish choralari ishlab chiqiladi. Inqirozga qarshi moliyaviy menejment - bu mumkin bo'lgan yoki rivojlanayotgan inqiroz sharoitida korxonaning moliyaviy nochorligini oldini olish va (yoki) bartaraf etish jarayoni.

Inqirozga qarshi moliyaviy boshqaruvning asosiy maqsadi to'lov qobiliyatini oldini olish va moliyaviy barqarorlikni tiklash, korxonaning moliyaviy holatini yaxshilash yo'lini ta'minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishdir. Shu maqsaddan kelib chiqib, korxonaning umumiy moliyaviy strategiyasi doirasida inqirozga qarshi moliyaviy boshqaruv siyosati shakllantirilmoqda.

Bankrotlikka yo'l qo'ymaslik uchun korxonadagi ishlarning holatini obektiv "tashxis" qilish kerak. Agar "tashxis" umidsizlikka uchrasa, unda korxonada - potentsial bankrotli inqirozdan olib chiqish uchun aniq harakatlardan iborat "sog'lomlashtirish" rejasi kerak bo'ladi. U bankrotlik ehtimolini bashorat qilish usullari va modellarini hamda xo'jalik sub'yekting inqirozdan chiqishini ta'minlaydigan moliyaviy sog'lomlashtirish mexanizmlarini o'z ichiga oladi. Tan olishimiz kerakki, korxonaning moliyaviy holatini baholash menejerlar uchun qiyin vazifadir va "Biz bankrotlikka duch kelyapmizmi?" degan savol ko'pincha moliya xodimlarini chalkashtirib yuboradi.

Moliyaviy sog'lomlashtirishni kreditorlarning talablarini ma'lum vaqt ichida mustaqil ravishda qondirish imkoniyatiga ega bo'lgan qarzdorga nisbatan qo'llaniladigan passiv undirish tartibi deb ta'riflash mumkin.

Moliyaviy sog'lomlashtirishning mohiyati shundan iboratki, qarzdor kreditorlar va sud nazorati ostida maxsus hujjatlar - moliyaviy sog'lomlashtirish rejasi va qarzni to'lash jadvali asosida kreditorlarga to'lovlarni amalga oshiradi. Shubhasiz, ushbu tartibni joriy qilish uchun kreditorlar qarzdorga ishonch bildirishi kerak.

Korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish tizimida birinchi navbatda moliyaviy barqarorlashtirishning ichki zaxiralaridan keng foydalanish zarur. Buning sababi ulardan muvaffaqiyatli foydalanish faqatgina bankrotlik tahdidini bartaraf qilish emas, balki tashkilotga qarz mablag'lari foydalanishga nisbatan tobe'ligidan sezilarli darajada ozod qilish, uni kamroq sarf-xarajatlar bilan tiklashni osonlashtirish imkonini beradi.

Moliyaviy inqiroz sharoitida tiklanish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

1-bosqich. To'lovga noqobilligini bartaraf etish. Korxonaning inqiroz holati miqyosi bankrotlik diagnostikasi natijalariga ko'ra qanchalik baholanishidan qat'iy nazar, uni

moliyaviy sogʻlomashtirish bo'yicha tadbirlar tizimida eng zaruriy vazifa uning joriy moliyaviy majburiyatlari bo'yicha to'lovlarni amalga oshira olish layoqatini, bankrotlik jarayonlari yuzaga kelishini bartaraf qilish va ishlab chiqarishni normallashtirishda moddiy-texnika ta'minotini tashkil etish majburiyatlarini tiklashdir.

2-bosqich. Moliyaviy barqarorlikni tiklash. Korxonaning to'lov noqobilligini bir qator moliyaviy operatsiyalar orqali tezkor bartaraf etish mumkin, ammo agar uni keltirib chiqaruvchi sabablar o'zgarishlarsiz qolsa, tashkilot tez orada yana nochor bo'lib qolishi mumkin. Shuning uchun bir vaqtning o'zida salbiy sabablarni bartaraf etish yoki ularning korxonalarning moliyaviy barqarorligiga ta'sirini keskin cheklash muhimdir. Bu bankrotlik xavfini nafaqat qisqa vaqt ichida, balki nisbatan uzoqroq muddatda ham bartaraf etadi.

3-bosqich. Uzoq muddatda moliyaviy muvozanatni ta'minlash. To'liq moliyaviy barqarorlikka faqat tashkilot o'z jarayonida uzoq muddatli moliyaviy muvozanatni ta'minlagan taqdirdagina erishiladi. Faoliyat ko'rsatishi, uning o'zini o'zi moliyalashtirishi, ishlab chiqarishni rivojlantirish va korxona faoliyatini moliyaviy yaxshilash uchun eski va paydo bo'layotgan yangi tahdidlarni bartaraf etish uchun sharoitlar yaratiladi.

Xulosa. Mazkur maqolada korxonalar iqtisodiy nochorligi va bankrotligi, iqtisodiy nochorlikni moliyaviy sogʻlomashtirish mexanizmlari muhokama qilingan. Tadqiqotda iqtisodiy nochorlik va bankrotlik kategoriyalarining asl mohiyati, huquqiy sabab va oqibati, iqtisodiy tanazzullikka olib keluvchi omillarning turlari, kelib chiqish sabablari hamda aniqlash mezonlari borasida ma'lumot keltirilgan.

Korxonani bankrotlik holatiga kelturuvchi omillar tahlil qilinib biz tomonimizdan korxonalarning to'lov qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tipik sabablar aniqlandi.

Iqtisodiy nochor ahvoldagi korxonalar faoliyatini moliyaviy tahlil qilish natijalariga ko'ra, korxonaning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, uning ichki imkoniyatlari va ta'sirini kamaytirish mumkin bo'lgan sabablar tanlanishi hamda tahlil qilinishi kerakligi aytib o'tildi.


FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hakimovich, T. M. (2024). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH. *Miasto Przyszłości*, 55, 1458-1463.
2. Hakimovich, T. M. (2024). Personalni Rag'batlantirish. *Miasto Przyszłości*, 53, 524-531.
3. Hakimovich, T. M. (2024). ZAMONAVIY BOSHQARUV VA RAQAMLASHTIRISH.

4. Hakimovich, T. M. (2024). Xizmat Ko'rsatish Sohasida Aholi Bandligini Oshirishning Nazariy-Metodologik Asoslari. *Miasto Przyszłości*, 54, 987-995.
5. Hakimovich, T. M. (2024). XODIMLARNI BOSHQARISHDA KPI SAMARADORLIGI TAHLILI. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 270-273.
6. Toshov, M. (2024). IQDISODIY NOCHOR KORXONALARNI MOLIYAVIY SOGLOMLASHTIRISHNING MOLIYA-KREDIT MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH. *Modern Science and Research*, 3(6).
7. Toshov, M. (2023). HR BOSHQARMASIDA KPI TIZIMI. *Modern Science and Research*, 2(12), 470-476.
8. Toshov, M. (2024). STRATEGIC MANAGEMENT OF HIGHER EDUCATION. *Modern Science and Research*, 3(2), 461-468.
9. Toshov, M. (2024). PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM. *Modern Science and Research*, 3(2), 603-608.
10. Toshov, M. (2024). MODERN MANAGEMENT AND DIGITALIZATION. *Modern Science and Research*, 3(5), 728-734.
11. Hakimovich, T. M. (2024). THE SYSTEM OF KEY PERFORMANCE INDICATORS AS A TOOL IMPROVEMENTS MANAGEMENT OF THE ORGANIZATION. *Gospodarka i Innowacje.*, 47, 353-358.
12. Hakimovich, T. M. (2024). KORPORATIV KORXONALARDA ISH O'RINLARINI YARATISH VA BANDLIKNI TA'MINLASHNING SAMARALI USULLARI.
13. Hakimovich, T. M. (2023). IQTISODIYOTDA MENEJMENTNING AHAMIYATI. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 84-87.
14. Hakimovich, T. M. (2023). TA'LIM TIZIMI BOSHQARUVIDA PEDAGOGIK TAHLIL. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 415-420.
15. Mirzabek, T. (2023). Marketing Kommunikasialari Tizimida Og'r Muloqotlar Xususiyatlari. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(14), 388-391.
16. Rakhimova, L. (2024). THE CONCEPT OF 4P MARKETING. ELEMENTS OF THE MODEL. *Modern Science and Research*, 3(1), 812-816.
17. Lolakhon, R. (2024). APPLICATION OF THE 4P CONCEPT IN TOURISM. *Gospodarka i Innowacje.*, 51, 138-145.
18. Lolaxon, R. (2024). THE ROLE OF MARKETING STRATEGIES IN TOURISM POTENTIAL OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(11), 230-240.
19. Abidovna, A. S. (2024). COMMUNICATION PROCESS MANAGEMENT AS A TOOL TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF MODERN ORGANIZATIONS. *Gospodarka i Innowacje.*, 49, 211-217.

20. Abidovna, A. S. (2023). Special directions of tourism development in Bukhara region: problems and solutions. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 21, 51-55.
21. Supiyevna, B. M. (2024). O'ZBEKISTONDAGI XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH VA AHOLINI ISH BILAN BAND ETISH YO'LLARI. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(08), 78-84.
22. Supiyevna, B. M. (2024). TIZIMIDA BANK FINANCIAL SERVICE NUMBER: DEVELOPMENT AND OLD TURGAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 379-385.
23. Jumayeva, Z. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA UNING AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 3(6).
24. Bustonovna, J. Z. (2024). DEVELOPMENT OF DIGITAL ECONOMY AND ITS PROSPECTS. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 285-291.
25. Bazarova, M. S. (2022). FACTORS THAT ENSURE THE SUCCESSFUL IMPLEMENTATION OF A SYSTEM OF KEY PERFORMANCE INDICATORS IN THE.
26. Xudoy nazarovich, S. A. (2024). KADRLAR BOSHQARUVI XUSUSIY OTMLARDA: XUSUSIYATLARI, YONDASHUVLARI VA MUAMMOLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 54, 70-77.
27. Shadiyev, A. (2024). PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM IN ENTERPRISES AND ORGANIZATIONS. *Modern Science and Research*, 3(8), 10-18.
28. Alisher, S. (2024). ACTUAL PROBLEMS OF DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 366-372.
29. Akbarovna, N. N. (2024). Oliy Ta'lim Muassasalarining Innovatsion Faoliyat Natijalarini Tijoratlashtirish Muammolari Va Ularni Hal Etish Yo 'Llari. *Miasto Przyszłości*, 54, 857-866.
30. Akbarovna, N. N. (2023). MULKCHILIK MUNOSABATLARINING JAMIYATDAGI TUTGAN O'RNI.
31. Naimova, N. (2024). THE COUNTRY'S ECONOMIC POTENTIAL IN DIGITAL ECONOMY AND E-COMMERCE DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 234-239.
32. Akbarovna, N. N. (2023). BULUTLI HISOBLASH TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIYOTDA TURGAN ORNI. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 517-520.
33. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). RAQOBAT TUSHUNCHASI, UNING TURLARI VA USULLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 459-463.

34. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). TASHKILOTNING INNOVATSION FAOLIYATI SAMARALIGINI BAHOLASH. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(2), 286-294.
35. Qudratova, G. M. (2024). METHODOLOGY FOR ASSESSING THE COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 191-195.
36. Mahmudovna, Q. G. (2024). RAQOBAT STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHDA RAQOBATNI BAHOLASH USULLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI. *Gospodarka i Innowacje*, 48, 715-720.
37. Otkirovich, N. S. (2024). Yashil Iqtisodiyotda Raqamli Transformatsiya. *Miasto Przyszłości*, 54, 1356-1364.
38. qizi Bobojonova, M. J. (2023). AGROTURIZMNING IQTISODIYOTDA O'RN, SALOHIYATI VA INFRATUZILMASINI YAXSHILASH. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(8), 48-52.
39. Bobojonova, M. J., & Naimova, N. A. (2024). AHOLINING O'ZINI OZI BANDLIGINI TA'MINLASHDA AUTSORSING YANGI SHAKLINI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 59-64.
40. Bobojonova, M. J., & Naimova, N. A. (2024). O'ZBEKISTONDA FRILANSERLIK VA AUTSORSERLIKNING RIVOJLANISH DARAJASI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 72-77.
41. Bobojonova, M. J., & Naimova, N. (2024). QISHLOQ XO'JALIGINI KLASSTERLASHNING XORIJIY TAJRIBASI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 65-71.
42. Djurayeva, M. S. (2024). ORGANIZATIONAL STRUCTURE OF A MODERN ENTERPRISE. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(12), 222-227.
43. Sadilloloyevna, D. M. (2024). ROLE OF COMMERCIAL BANKS IN THE DEVELOPMENT OF THE MODERN ECONOMIC SYSTEM. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(11), 241-248.
44. Sadullayevna, D. M. (2024). BASICS OF DIGITAL MARKETING. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 160-166.
45. қизи Раҳмонқулова, Н. О. (2023). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИНГ ХУДУДЛАР ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. "Экономика и туризм" международный научно-инновационный журнал, 6(14).
46. Nafisa, R. (2024). Formation of a Strategy for Sustainable Development of the National Economy. *Miasto Przyszłości*, 54, 764-771.

- 
47. Rakhmonkulova, N. (2024). Prospects for the Development of the Economy of Uzbekistan. *JOURNAL OF INTELLECTUAL PRPERTY AND HUMAN RIGHTS*, 3(10), 37-44.
48. Turayevich, I. A. (2024). Milliy Iqtisodiyotga Xorijiy Investitsiyalarni Jalb Qilishda Soliqlarning O‘Rni. *Gospodarka i Innowacje*, 53, 205-213.
49. Aziz, I. (2023). O‘zbekistonda xorijiy investitsiyani jalb qilishni soliqlar vositasida rag‘batlantirish yo‘llari. *SAMARALI TA’LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(5), 191-196.
50. Ibragimov, A. T. (2024). MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYANI JALB QILISHNI SOLIQLAR VOSITASIDA RAG‘BATLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 116-122.
51. Turayevich, I. A. (2024). Iqtisodiyotga Investitsiyalarni Jalb Qilish Va Boshqarishning O‘Ziga Xos Xususiyatlari. *Miasto Przyszłości*, 53, 1231-1237.
52. Azimov, B., Toshev, F., & Raximova, D. TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYA.
53. TEMPUS, I. (2016). Towards the Modernisation of Higher Education InstitutionS in Uzbekistan (MATCHES). *TEMPUS*, 4, 2007-2013.
54. Azimov, B. F., & Gulomov, O. H. (2017). Organizational structures of innovation support services: inter-organizational cooperation associations. *Инновационное развитие*, (6), 35-37.
55. Akhmedov, Y., Asadov, S., & Azimov, B. (2022, December). Two-sided estimation of linear approximation error second-order hypersurfaces. In *Journal of Physics: Conference Series* (Vol. 2388, No. 1, p. 012124). IOP Publishing.